

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O’QISH FAOLIYATIDA O’Z O’ZINI ANGLASHGA O’RGATISH TEXNALOGIYALARI

Abdug’afforova Navbahor Botirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi

[Maktabgacha ta’lim] mutaxasizligi 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22844051>

Annotatsiya: O’qish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo’lib u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O’qish bolaning kelajakdagi o’yin, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. Ushbu maqolada o’quv faoliyatida bola o’z o’zini anglash texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: O’qish, kitob, sayr, mashg’ulot, o’yin, ertak, qoida, munosabat, nutq, pisixik jarayon, qonun, qaror.

O’qish bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o’qish bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O’qish orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko’nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me’yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O’qishda bolaning o’z tengqurlari va kattalar bilan bo’ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. O’qish bolalarga ta’lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O’qish jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O’qish faoliyati barcha guruxlarda turli usullar orqali olib boriladi. Kichik guruxlarda turli xildagi xikoya ertaklar aytish orqali shakllansa, kata guruxlarga ertak hikoyalarni kitoblar orqali oqib rasmlarda tushuntirib berish maqsadga muvofiqdir. O’qish u yoki bu rolni eshitib, bola o’zining butun diqqatini eshitgan narsasiga qaratishi lozim. Bola eshitganida hikoyani undagi kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to’g’risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

O’qish bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida asosan kata guruhdan boshlanadi. O’qish ertalab (15-20 daqiqa) va nonushtadan keyin, mashg’ulotlar o’rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o’tkaziladi. Ertalab rolhi hikoyalar tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg’ulot

o'rtasida qiziqarli topishmiq o'tkaziladi. Ular asosan, mashg'ulotning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi she'rlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'qish hikmatli, qiziqarli tez aytishlar kiradi. O'qish bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o'qish orqali bolalarda ona-Vatanga, o'z xalqiga, boshqa millat yakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'qish orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo'ylik o'zini tuta bilishlik tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'qish bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi maktab vazifasini ham bajaradi.

Bolalarda o'qish faoliyatida fikrini jamlashda tarbiyashi turli hilda voqeya yoki hikoya ertaklarni qahramonlar ro'liga kirishib aytib berishlari kerak. Shunda bolalar ertak, hikoya va voqiyalarni diqqat bilan tinglab fikrini jamlaydi. Yoki bo'lmasam tarbiyachi bolalarning o'zlari ishtirokida turli xildagi ertaklarni saxnalashtirishi kerak bolalar ertak qahramonlari ro'lini qiziqish bilan o'ynashadi. Ularning o'zlarida ham qiziqish hissi uyg'onadi. Buning uchun tarbiyachi bolalar uchun mahsus ertak qahramonlarining liboslarini tayinlab qo'yishi kerak. Bolalarga haftada uch kun sahnalashtirilgan ertak yoki hikoyalarni bolalarga o'ynatib tursa bolalarda qiziqishlar uyg'onadi. Buning uchun tarbiyachidan kata mahorat talab qilinadi.

Bolalarning o'qish faoliyatida turli xildagi interfaol metodlardan foydalanish ularni to'g'ri shakllanishiga olib keladi. Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdagi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Darslarda faol va interfaol o'rganish usullaridan foydalangan holda o'qituvchi talabalar tomonidan o'qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi interfaol texnologiyalar va o'quv usullariga asosan qo'llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o'qish – bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin

Xulosa o’rnida shuni takidlash joyizki bolalarning o’qish faoliyati bola shaxsining yetuk, nutqining ravon, kattalar bilan so’zlashish, o’rtoqlariga bo’lgan munosabatni to’g’ri rivojlanishiga olib keladi. Bolalar o’qish faoliyatida o’zini anglash fissi oshadi. Bolalarda o’qish faoliyatini to’g’ri tashkil qilish orqli ularni erta yoshdan rivojlantirishga erishish samaradorligini oshirish mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kayumova N. Azamov M. "Maktabgacha pedagogika" o'quv qollanma. Toshkent, 2019y.
2. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika " Toshkent- 2013y
- 3 Qodirova F. "Maktabgacha pedagogika" o'quv qollanma. Toshkent, 2019y.
- 4 .Turdieva.M.J. Maktabgacha yoshdagi bolalardning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion metodlari.Uslubiy qo'llanma. Buxoro. "Durdona" nashriyoti. 2022 yil.
5. Urinova Feruza Uljaevna, Sharofutdinova Rano Shavkatovna. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00358.X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal).ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021.